



2023-yilning 15-iyun kuni LET L-410 turdag'i havo kemalarini sotib olish to'g'risida bitim imzolandi. LET l-410 19 tagacha yo'lovchini tashish uchun mo'ljallangan samolyot bo'lib uzunligi 510 metrdan boshlanadigan har qanday uchish-qo'nish yo'lagiga qo'na oladi.

Uzbekistan Airways aviakompaniyasining aviaparki tez orada yangi turdag'i havo kemalari bilan to'ldiriladi. 2023-yil 15-iyun kuni Uzbekistan Airways bosh ofisida kichik guruh yo'lovchilarini tashish uchun ichki yo'naliishlarda reyslar sonini ko'paytirish, shuningdek, respublikada ichki turizmni rivojlantirish maqsadida Chexiyaning LET Aircraft Industries konsernining LET L-410 turbovintli havo kemalarini sotib olish bo'yicha shartnomasi imzolandi.

LET L-410 turidagi samolyotlar 19 tagacha yo'lovchini tashish uchun mo'ljallangan bo'lib 1500 kilometrgacha parvoz qila oladi. Ushbu havo kemalarini qisqa uchish-qo'nish yo'laklarida qo'llash va respublika ichidagi Zarafshon va Shahrisabz shaharlari kabi yo'naliishlar tarmog'ini kengaytirish rejalashtirilgan. Yaqin kelajakda Toshkent va Andijon shaharlari o'rtaida muntazam aloqalarni tiklash ham rejalashtirilgan, bu ham LET L-410

havo kemalarining texnik xususiyatlari va Andijon xalqaro aeroporti uchish-qo?nish yo?lagining o‘ziga xosligi tufayli mumkin bo?ladi.

Bugungi kunda LET L-410 tipidagi samolyotlar butun dunyoda keng qo'llaniladi. O‘zbekiston Respublikasi milliy aviatashuvchisi ushbu turdagи 4 tagacha samolyot sotib olishni rejalashtirmoqda, bu esa kelgusida o‘zbekistonliklar va poytaxt mehmonlari uchun avval borish imkonini bo‘limgan yo‘nalishlarga sayohat qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, Uzbekistan Airways’ning O‘quv-mashg‘ulot markazi bazasida fuqaro aviatsiyasi uchuvchilarini dastlabki tayyorlash jarayonining bosqichlaridan birida LET L-410 rusumli avialaynerlardan foydalanish rejalashtirilgan.



[Download PDF](#)